

SHAXSNING KASBIY FAOLIYATGA YO'NALGANLIGI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Karimov Islom Jamshid o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistranti
islomk627@gmail.com

Annotatsiya: *Zamonaviy mehnat bozori talablarining o'sib borishi, texnologik va iqtisodiy rivojlanish sharoitida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, ularning kasbiy qobiliyatlari va qiziqishlarini to'g'ri shakllantirish jamiyat farovonligini oshirish uchun asosiy vazifalardan biri. Kasbiy faoliyatga yo'nalganlikni shakllantirish yoshlarning o'z qobiliyatlarini aniqlashi, mehnat faoliyatiga motivatsiyasini oshirishi va mehnat bozorida muvaffaqiyatli raqobatlashishiga imkon yaratadi. Ushbu jarayon shaxs rivojlanishining psixologik xususiyatlarini o'rganishni talab qiladi, chunki kasb tanlashdagi qarorlar nafaqat individual darajada, balki ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.*

Kalit so'zlar: *Kasb, qiziqish, motivatsiya, ehtiyoj, kasbiy motivatsiya, kasbiy faoliyatga yo'nalganlik, qiziqish muammosi, kasbiy qiziqish, sinchikovlik, bilishga qiziqish, qiziquvchanlik.*

Аннотация: *В условиях растущих требований современного рынка труда, технологического и экономического развития подготовка конкурентоспособных специалистов, правильное формирование их профессиональных навыков и интересов является одной из главных задач повышения благосостояния общества. Формирование профессиональной ориентации позволяет молодым людям выявлять свои способности, повышать мотивацию к труду и успешно конкурировать на рынке труда. Этот процесс требует изучения психологических особенностей личностного развития, поскольку решения о выборе профессии играют важную роль не только на индивидуальном уровне, но и в обеспечении социально-экономического равновесия.*

Ключевые слова: *Профессия, интерес, мотивация, потребность, профессиональная мотивация, направленность на профессиональную деятельность, проблема интереса, профессиональный интерес, любознательность, любознательность.*

Abstract: *In the context of the growing demands of the modern labor market, technological and economic development, training competitive specialists, properly shaping their professional abilities and interests is one of the main tasks for increasing the well-being of society. The formation of a career orientation allows young people to identify their abilities,*

increase their motivation for work, and successfully compete in the labor market. This process requires the study of the psychological characteristics of personal development, since decisions about career choice play an important role not only at the individual level, but also in ensuring socio-economic balance.

Keywords: *Profession, interest, motivation, need, professional motivation, orientation toward professional activity, problem of interest, professional interest, curiosity, curiosity.*

KIRISH

Dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga qo‘shilib borayotgan O‘zbekiston o‘zining mustaqil yo‘lidan borar ekan, bu sohada olib borilayotgan amaliy-nazariy ishlarini jamiyat hayotiga tadbiq etib ko‘plab yutuqlarga ega bo‘lib bormoqda. Bu haqda Shavkat Mirziyoyev yoshlar bilan uchrashuvda ularga sifatli ta‘lim berish, zamonaviy kasb va xorijiy tillarni o‘rgatish eng asosiy vazifaga aylanganini aytdi. U yigit-qizlarining iqtisodiyot o‘shida hissasi borligini ta‘kidlab, tinchlik va rivojlanish bilimli va texnologik savodxon yoshlarga bog‘liqligini urg‘uladi. Maktabni bitirayotgan har bir yosh hayotga kamida ikkita xorijiy til va bitta zamonaviy kasb-hunarni egallagan holda qadam qo‘yishi shart. Davlat rahbari “Kelajak – zamonaviy bilim bilan qurollangan kasb-hunar egalarinikidir” degan g‘oyani doimiy ravishda ta‘kidlaydi¹²¹.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2020-yilga mo‘ljallangan ustuvor vazifalarni belgilab berishda va u aholining daromadini oshirish, xotin-qizlar va yoshlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, korrupsiyaga qarshi kurashish, iqtisodiyotni raqamlashtirish va ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish kerakligi tta‘kidlab o‘tilgan. Shu bilan bir qatorda maktab bitiruvchisi kamida bitta kasb-hunarni egallab chiqishi kerakligi, yoshlarni kasbga o‘qitish tizimini tubdan takomillashtirish – eng muhim vazifalarimizdan biri ekanligini alohida e‘tibor qaratilgan¹²².

Ta‘lim tizimida kasbiy yo‘naltirishni rivojlantirish va shaxsga individual yondashuvni joriy etish yoshlarning o‘z kelajagini ongli tanlashiga va o‘z-o‘zini anglashiga yordam beradi. Bundan tashqari, zamonaviy mehnat sharoitlarida stress, motivatsiya yo‘qligi va kasbiy charchash kabi psixologik muammolar keng tarqalgan bo‘lib, ularga yechim topish mavzuning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Kasbiy faoliyatga yo‘nalganlikni shakllantirish bo‘yicha tadqiqotlar bu muammolarni bartaraf etish va mehnat samaradorligini oshirish uchun samarali usullarni ishlab chiqish imkonini beradi.

¹²¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 30-iyundagi yoshlar bilan tashkil etilgan uchrashuv nutqidan.

¹²² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi

Jahon psixologiya fanining yirik namoyondalari shaxsning qiziqishini uning yaxlit ruhiy dunyosi bilan odammning aqliy faoliyati, bilish jarayonlari, irodasi, temperamenti, hissiyoti, xarakteri, qobiliyati bilan, umuman olganda, inson tuzilishining barcha jabxalari bilan bog‘liq holda tushuntirishga harakat qilganlar.

Qiziqish muammosi psixologik nuqtayi nazardan hozirgacha N.F.Dobrinin, E.G‘.G‘oziyev, N.G.Morozova, N.A.Ribinkov, M.G.Davletshin, N.D.Levitov, M.F.Belyayev, V.A.Tokareva, M.V.Vohidov, L.A.Gordon, L.I.Bojovich va boshqalarning nazariyalarida hamda maxsus eksperimental tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Hozirgi zamon psixologiyasida qiziqish obyektiv borliqning insonlar ongida sub‘ektiv tarzda aks etishi sifatida tan olinadi. Qiziqish shaxsning muayyan voqelikdagi, muayyan vaziyatdagi turli xil narsa va hodisalarga tanlab munosabatda bo‘lish, insonning o‘ziga xos qaror qabul qilishida, o‘zini-o‘zi nazorat qilishida, maqsadga intilishida, yuzaga kelgan obyektiv va subyektiv to‘siqlarni yengishda ifodalanadi.

Psixologiya fanining ko‘zga ko‘ringan olimlarining ta‘limoticha, qiziqish odamlarning ehtiyojlari negizida yaqqol ijtimoiy, tarixiy shart-sharoitda, vaziyatda yuzaga keladi, shakllanadi, barqarorlashib boradi va ularning shaxsiy turmush sharoiti hamda faoliyatida, ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashishi singari omillarda gavdalanadi. Umumiy talqinlarga asoslanib mulohaza bildiriladigan bo‘lsa, u alohida jarayon, ammo ma‘lum psixologik funksiya emas, chunki u his-tuyg‘u, iroda, ong, qolaversa jamiki psixik holatlar, hodisa va ichki kechinmalarni o‘zida mujassamlashtirgan murakkab tizimli ruhiy voqelikdir.

Psixologiya fanining so‘nggi ma‘lumotlariga asoslangan holda qiziqishni bir necha darajalarga ajratishimiz mumkin:

- a) Sinchikovlik;
- b) Qiziquvchanlik;
- c) Bilishga qiziqish;
- d) Turg‘un yoki kasbiy qiziqish.

Sinchikovlik – qiziqishning biror narsaga kuchli intilishdan iborat qisqa muddatli turi yoki darajasidir.

Qiziquvchanlik - shaxsning voqelikdagi narsa yoki hodisalarga, ularni bilishga faol munosabatidan iborat darajasidadir.

Bilishga qiziqish - anglashilgan darajadagi, maqsadga muvofiqlashgan, aqliy va jismoniy faoliyatning yangi qirralarini egallashga yo‘naltirilgan turidir.

Turg‘un qiziqish – shaxsning malak, kasbiy ko‘nikmalar va bilimlarni egallashga yo‘naltirilgan, kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan uyg‘unlashgan, maqsadga erishish yo‘lida faollik ko‘rsatuvchi turidir.

Shaxslar ixtiyoriga anagramma, piktogramma va turli xususiyatli testlarni havola qilish ularda qiziqishning ichki mexanizmlarini keltirib chiqaradi. Bu o'z navbatida ularda o'z qiziqishini o'zi boshqarish ko'nikmasini shakllantiradi, har qanday qo'zg'aluvchiga javob berishdan iborat stereotip hosil bo'ladi.

Qiziqishning bu turi va uning yuqori bosqichi shaxsning voqelikdagi ichki bog'lanishlarni, munosabatlarni bilib olishga yo'llaydi va ruhiy to'siq hamda qiyinchiliklarni yengadigan, muvaffaqiyatsizliklardan cho'chimaydigan, qat'iy, toliqmaslik, intiluvchan kabi o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Qiziqishning turlari odamlarda o'zini o'zi boshqarish, o'ziga o'zi buyruq bera olish, shaxsiy qiziqishini idora qila olish, o'zini qo'lga olish, o'zini o'zi takomillashtirish singari shaxs xususiyatlarini shakllantirishda yordam beradi.

Bolalarda 1 yasharlik vaqtlaridayoq ta'sirli, yorqin, harakatli narsalarga va birinchi marta ko'rgan narsalariga qiziqadigan bo'ladilar. Shuningdek, bola endigina qila boshlagan bir xil harakatlarni ham takrorlashga qiziqadi. Birmuncha barqaror qiziqish bolalarda maktab yoshida, avvalo, o'qish jarayonida tarkib topa boshlaydi. Bola maktabga endi muayyan maqsad bilan tashrif buyuradi. Endi unda maktabga, o'qishga qiziqish paydo bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda o'qish jarayonida bola qaysi fandan muvaffaqiyat qozonsa hammasidan ko'proq ushanga qiziqadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilaridayoq kelgusida kim bo'lish masalasiga qiziqish ko'rini boshlaydi. Ulardagi bunday qiziqish o'z ota-onalari hamda katta yoshdagi maktabdoshlarining gaplari ta'siri ostida, shuningdek turli kasbdagi kishilar: shifokor, o'qituvchi, va boshqalarning qilgan ishlarini kuzatishlari natijasida paydo bo'ladi.

5-8-sinf o'quvchilaridagi qiziqishlarning o'sishi uchun o'quv mashg'ulotlari bilan bir qatorda, turli to'garaklarda: adabiyot, texnika, san'atshunoslik va boshqa to'garaklarda o'tkaziladigan mashg'ulotlar ham katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda paydo bo'ladigan qiziqishlar ma'lum bir to'garakni tanlashda aniqlanadi, to'garaklardagi mashg'ulotlar vaqtida esa bu qiziqishlar o'sib borib mustahkamlanadi, ancha barqaror tus oladi.

Shunday qilib, o'quvchilarda muayyan fan yoki umuman bilimga bevosita qiziqishlar bilan birga kasbga, hayotning muayyan sohasiga qiziqish mana shunday vujudga keladi.

METODOLOGIYA VA NATIJALAR

Biz ushbu tadqiqot ishimizda A.E.Golomshtokning "Qiziqishlar xaritasi" metodikasining G.V.Rezapkina tomonidan modifiikatsiya qilingan shaklini qo'lladik. A.E.Golomshtokning "Qiziqishlar xaritasi" metodikasining (G.V.Rezapkina tomonidan modifiikatsiya qilingan shakli) maqsadi o'quvchilarning fizika va matematika, kimyo va biologiya, radiotexnika va elektronika, mexanika va konstruktorlik, geografiya va geologiya, adabiyot, san'at, tarix, siyosat, pedagogika (psixologiya), tibbiyot, tadbirkorlik, uy-ro'zg'or ishlari, sport va harbiy

soha yo‘nalishidagi kasbiy qiziqishlari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish, natijalari asosida kelgusi kasbga yo‘naltirish rejalarini belgilashdir.

Inson hayotida kasb tanlovi eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Chunki inson umrining yarmidan ko‘pini aynan mehnat faoliyati bilan o‘tkazadi. Mehnatining samarali bo‘lishi, o‘z sohasida yetuk mutaxassis bo‘lish uchun esa kasb tanlash vaqtida to‘g‘ri qaror qabul qilish muhim omil sanaladi. Kasb tanlovi aynan o‘smirlik davridan boshlanib o‘spirinlik davrida yuqori cho‘qqisiga vchiqadi. Bu davrda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish va ularning qiziqishlarini aniqlashda kompleks yondashish zarur. Buning uchun esa eng avvalo o‘quvchilarni qaysi sohaga qiziqishlarini aniqlash muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonda to‘g‘ri metodika tanlash va o‘tkazish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini aniqlash maqsadida keng qamrovli tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotda 90 nafar sinaluvchidan kasbiy qiziqishga oid metodikalar o‘tkazildi.

Ushbu metodikalardan biri A.E.Golomshtokning “Qiziqishlar xaritasi” metodikasining G.V.Rezapkina tomonidan modifiikasi qilingan shaklidir. Uning tahlilini quyida ko‘rib chiqamiz.

Kasb tanlash jarayonida o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olish o‘z sohasining yetuk kadrlarini yetishib chiqishiga imkon yaratadi. Chunki qiziqish kelajakda kasb tanlovi uchun asos bo‘lib hizmat qilishi mumkin. Tadqiqot davomida sinaluvchilarning qiziqishlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot o‘tkazildi. Dastlab tahlilni jins bo‘yicha ko‘rib chiqqanimizda quyidagi jadval yuzaga keldi.

1-jadval

Qiziqishlar xaritasi metodikasi bo‘yicha Student t mezonini asosida jins tafovutlari tahlili

Ko‘rsatkichlar	Jins	N	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	t	p
Fizika va matematika	Yigitlar	42	2,31	1,554	1,978	0,051
	Qizlar	48	1,65	1,618		
Kimyo va biologiya	Yigitlar	42	2,33	1,572	1,001	0,320
	Qizlar	48	2,02	1,360		
Radiotexnika va elektronika	Yigitlar	42	3,00	1,325	5,821	0,000***
	Qizlar	48	1,23	1,561		
Mexanika va konstruktorlik	Yigitlar	42	2,19	1,469	2,589	0,011*
	Qizlar	48	1,42	1,366		
Geografiya va geologiya	Yigitlar	42	2,38	1,497	1,177	0,242
	Qizlar	48	2,04	1,237		
Adabiyot va san’at	Yigitlar	42	2,1905	1,36575	-0,899	0,371

	Qizlar	48	2,4583	1,45804		
Tarix va siyosat	Yigitlar	42	2,7619	1,66469	1,473	0,144
	Qizlar	48	2,2708	1,49808		
Pedagogika (psixologiya) va tibbiyot	Yigitlar	42	2,40	1,251	0,425	0,672
	Qizlar	48	2,29	1,271		
Tadbirkorlik va uy- ro‘zg‘or ish	Yigitlar	42	3,19	1,486	0,401	0,689
	Qizlar	48	3,06	1,535		
Sport va harbiy soha	Yigitlar	42	2,86	1,424	0,472	0,638
	Qizlar	48	2,73	1,144		

Izoh: * $p \leq 0,05$ (95 %), ** $p \leq 0,01$ (99%), *** $p \leq 0,001$ (99.9%)

Bunga ko‘ra radiotexnika va elektronika ($t = -5,821$; $p \leq 0,001$), mexanika va konstruktorlik ($t = 2,589$; $p \leq 0,05$) shkalalarida ishonchli farqlar kuzatildi. Ya‘ni bu ikki shkalada yigitlar qizlarga qaraganda ustunroq bo‘lib bunga sabab bu sohalar asosan yigitlar shug‘ullanadigan kasblar hisoblanadi.

Sinaluvchilardagi qiziqishlarni sinflar kesimida tahlil qilganimizda qator shkalalarda ishonchli farqlar qayd etildi. Xususan, fizika va matematika ($t = 2,850$; $p \leq 0,01$), radiotexnika va elektronika ($t = -2,086$; $p \leq 0,05$), mexanika va konstruktorlik ($t = 2,158$; $p \leq 0,05$) shkalalarida farqlarni ko‘rishimiz mumkin. Ushbu shkalalarning barchasida 11-sinflarga qaraganda 10-sinflarda qiziqish yuqoriroq ekan. Umuman olganda bu sohalar qiziqishini ikkita omil bilan izohlash mumkin. Birinchidan, bu sohalar bir-biriga bog‘liq. Radiotexnika va mexanikaning asosida fizika fani turadi. Tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilar katta qismi aynan shu sohaga qiziqishi o‘z isbotini topdi. Ikkinchidan, 10-sinfda hali 11-sinfga qaraganda kasb tanlovi borasida aniq bir to‘xtam bo‘lmagani uchun bir emas bir nechta sohaga qiziqish bo‘lishi tabiiy hol hisoblanadi. Shu orqali qiziqishlarni ham ikki bo‘lakka ajratish mumkin. Bir-biriga bog‘liq qiziqishlar va bog‘liq bo‘lmagan qiziqishlar hisoblandi. Bog‘liq yo‘nalishlarga qiziquvchilarda maqsad aniq bo‘ladi. Turli yo‘nalishga qiziquvchilarda esa hali ikkilanish holi kuchli bo‘ladi. Natijalarni batafsil quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval

Qiziqishlar xaritasi metodikasining bo‘yicha Styudent t mezoni asosida sinf tafovutlari tahlili

Ko‘rsatkichlar	sinf	N	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	t	p
Fizika va matematika	10	38	2,50	1,538	2,850	0,006**
	11	52	1,56	1,564		
Kimyo va biologiya	10	38	2,50	1,428	1,879	0,064
	11	52	1,92	1,453		

Radiotexnika elektronika	va	10	38	2,47	1,502	2,086	0,040*
		11	52	1,75	1,781		
Mexanika konstruktorlik	va	10	38	2,16	1,424	2,158	0,034*
		11	52	1,50	1,435		
Geografiya geologiya	va	10	38	2,42	1,536	1,316	0,191
		11	52	2,04	1,220		
Adabiyot va san’at		10	38	2,4474	1,20129	0,678	0,499
		11	52	2,2500	1,55771		
Tarix va siyosat		10	38	2,4474	1,42748	-0,275	0,784
		11	52	2,5385	1,70882		
Pedagogika (psixologiya) tibbiyot	va	10	38	2,61	1,242	1,703	0,093
		11	52	2,15	1,243		
Tadbirkorlik va uy- ro‘zg‘or ish		10	38	2,79	1,527	-1,816	0,073
		11	52	3,37	1,456		
Sport va harbiy soha		10	38	2,79	1,234	0,004	0,997
		11	52	2,79	1,319		

Izoh: * $p \leq 0,05$ (95 %), ** $p \leq 0,01$ (99%), *** $p \leq 0,001$ (99.9%)

XULOSA

O‘quvchilarning kasbiy shakllanishi murakkab va uzluksiz jarayon bo‘lib, mana shu jarayon insonning shaxsiy qadriyatlari, qiziqishlari, motivlari, shaxsiy ehtiyojlari, hayotiy pozitsiyalari bilan chambarchas bog‘liq holda o‘z yo‘nalishlarini belgilaydi.

Har bir shaxsning kasbiy yo‘nalganligi tarkib topishi maktab davridan boshlanadigan hodisalardan biri hisoblanadi. Kasbiy yo‘nalganlik bu shaxsning o‘z bilimi, qobiliyati va tajribasini tanlagan kasb sohasida qo‘llashi uchun shaxsiy intilishi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shaxsning kasbiy yo‘nalganligi deganda kasbga nisbatan layoqati, ijobiy munosabati, unga qiziqishi, shaxsiy tayyorgarligi, tanlagan kasbi sohasida mehnat qilib, moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari kasbiy yo‘nalganlik kasbiy faoliyatini maqsadi, vazifasini tushunishi va qabul qilishini ham nazarda tutadi.

Darhaqiqat, kasb tanlovi o‘smirlik davridan boshlanib o‘spirinlik davrida yuqori cho‘qqiga chiqadi. Shuni nazardan qochirmaslik kerakki, ayni shu davr shaxsning qiziqishlari, layoqati, qadriyatlari, kasbga bo‘lgan motivatsiyasi, ehtiyojlarini inobatga olgan holda kasbga yo‘naltirishning ayni vaqti hisoblanadi. Bu jarayonda albatta, ota-onaning o‘rni, jamiyat, maktab rahbariyati, sinf rahbari, amaliyotchi psixologlarni o‘rni katta. Albatta, o‘quvchilarni kasbga qiziqish va intilishlarini inobatga olgan holda to‘g‘ri yo‘naltirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, maktab o‘quvchilarini o‘rtasida kasbiy faoliyatga yo‘naltirish qator muammolar mavjud. O‘quvchilar kasblar haqida to‘laqonli tushunchaga ega bo‘lmay turib, atrofdagilarning fikri yoki ijtimoiy stereotiplar natijasida kasb tanlamoqda. Natijada kadrlar qo‘nimsizligi, defitsitligi, ta‘lim olgan sohasiga ishlamaslik holatlari yuzaga kelmoqda. Buning uchun o‘quvchilarda kasb qiziqish va bilim uchburchagini mustahkamlash zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” – T.: O‘zbekiston, 2021, 464.
2. Mirziyoyev Sh.M, Oliy Majlis Murojaatnomasi. 2020.01.24
3. Yulchiyeva Z.N. Kasbiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma, Toshkent. 2019
4. Zufarova M.E., Umumiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – T: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
5. Гудкова Е.В. Основы профориентации и профессионального консультирования, Учебное пособие Челябинск, 2004.
6. Зеер Э.Ф. Психология профессий. М: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2003.
7. Каратаева С., Масалиева Н. Теория и практика профессиональной ориентации. Учебно-методическое пособие, Бишкек., 2023.
8. Климов Е.А. “Как выбрать профессию” Москва, 1990.
9. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М: Издательский центр “Академия”, 2004.
10. Xolbo‘tayev I.Q. Yuqori sinf o‘quvchilari va oliy o‘quv yurtlarida yoshlarni kasbga tayyorlashning izchilligi. Bitiruv malakaviy ish (BMI). Guliston, 2020.
11. Usmonov A. O‘quvchilarni kasb-hunarga maqsadli yo‘naltirish istiqbolda mehnat bozoridagi muammolarni bartaraf etishning muhim omili. Maqola.
12. Faxriddinov Y.A., Bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy faoliyatga tayyorligini diagnostika qilish mexanizmlari, PhD dissertatsiyasi avtoreferati; Toshkent-2023

Internet saytlari

13. <https://infourok.ru>
14. www.Unlibrary.uz
15. www.natlib.uz
16. www.dissercat.com